

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA DILFUZA ABDIFATTOHOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI SINERGETIK
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.13 - Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertasii doktora filosofii(PhD) po ekonomicheskim
naukam**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Saidova Dilfuza Abdifattohovna

O'zbekistonda turizm sohasini sinergetik rivojlantirish asosida boshqaruv
mexanizmlarini takomillashtirish 3

Saidova Dilfuza Abdifattoxovna

Совершенствование механизмов управления на основе
синергетического развития сферы туризма в Узбекистане 29

Saidova Dilfuza Abdifattohovna

Improving management mechanisms for the synergetic development of the
tourism sector in Uzbekistan 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublikovannix rabot
List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA DILFUZA ABDIFATTOHOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI SINERGETIK
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.13 - Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2025.1.PhD/Iqt5319 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xonkeldieva Go'zal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Norchayev Asatullo Norbo'tayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xodjayeva Nodira Abdurashidovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alfraganus universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «29» 12 kuni soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1858 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» 12 dagi 116 - raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
huzuridagi bir martalik ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish orqali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish esa hududlar turistik-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, turizm xizmatlari sifatini oshirish va sohada barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida belgilanmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida turizm sohasi alohida o'rin kasb etmoqda. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, «2024-yilda global turizm sanoati pandemiyadan oldingi darajaga samarali tiklanib, yuqori jonlanishni boshdan kechirdi. Taxminan 1,4 milliard xalqaro sayyoh dunyo bo'ylab sayohat qilib, 2019-yilga nisbatan 99 % tiklanishni va 2023-yilga nisbatan 11%ga o'sishga erishib 140 milliondan ko'proq xalqaro turistlar tashrifi amalga oshirildi»¹. Turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish sohaning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda innovatsion klaster modellarini joriy etish, turizm, madaniyat, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, hududlararo integratsiya orqali kompleks turistik makonlar yaratish hamda raqamlashtirish asosidagi boshqaruv vositalaridan foydalanishni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, «smart tourism» ekotizimlari, barqaror turizm ko'rsatkichlari (Sustainable Tourism Indicators), katta ma'lumotlarga asoslangan talabni bashoratlash, turizm qiymat zanjirida mahalliy hamjamiyat ishtirokini kuchaytirish va xalqaro brendlashuv strategiyalarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar rivojlanmoqda. Integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda davlat-xususiy sheriklikning yangi modellarini tatbiq etish, xizmatlar diversifikatsiyasini kuchaytirish va turizm infratuzilmasining ekologik moslashuvchanligini ta'minlash vaziyat talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish jarayonida tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va sinergetik imkoniyatlardan samarali foydalangan holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Bu borada turizm tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan yondashuvlarini tadqiq qilish, turizm sinergetik rivojlanish mezonlari va

¹https://blog.learntourism.org/2024-global-tourism-statistics?utm_source=google&utm_medium=ppc&utm_campaign=tourism_ambassador&utm_term=&utm_term=&utm_campaign=Tourism+Ambassador+Programs&utm_source=adwords&utm_medium=ppc&hsa_acc=3790549403&hsa_cam=22501646625&hsa_grp=&hsa_ad=&hsa_src=x&hsa_tgt=&hsa_kw=&hsa_mt=&hsa_net=adwords&hsa_ver=3&gad_source=1&gad_campaignid=22746553812&gbraid=0AAAAAqZZyqFNDu-4UbTT3yprLbogRGA0m&gclid=EAIaIQobChMkZqvj5S_jwMVuE-RBR1w8R4VEAAYAiAAEgLCdFD_BwE

ko'rsatkichlarini aniqlash, tarmoqlar o'rtasidagi iqtisodiy va tashkiliy hamkorlik omillarini guruhlash, turizm tarmoqlari salohiyatidan samarali foydalanish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, turizm industriyasida sinergetik ta'sir samaradorligini baholash kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish orqali hududlar turistik-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, tarmoqlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turizm sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash, turizm xizmatlari sifatini oshirish, ichki va tashqi turizmni jadal rivojlantirish yo'nalishlarida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifalarni samarali bajarishda turizm sohalari faoliyatida sinergetik imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanish, tarmoqlar kesimida resurslar taqsimotini takomillashtirish, boshqaruv mexanizmlarini hududiy va mavsumiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlantirish hamda turizm industriyasida sinergetik ta'sir samaradorligini baholash kabi ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son «Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2024-yil 12-yanvardagi PF-20-son «O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan G.Xarris, R.Kas, A.Atiyaman, M.Meskon, M.Albert, E.Shuxart, E.Deming, M.Porter, G.Chesbro, I.A.Kiselova, A.M.Tramova, F.Taylor, P.Druker kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi². Ushbu olimlarning

² Харрис Г., Кац Р. Становление международного туризма в XXI веке. М.: Финансы и статистика, 2006.; Athiyaman, A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management; Meskon M., Альберт М. др. Основы менеджмента, –М.: Дело, 1997. –С. 56.; Shewhart W. A. Statistical Method from the Viewpoint of Quality Control. Washington: The Graduate School, The Department of Agriculture, 1939; Deming W. E. Out of the Crisis. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 1986. P. 6.; Портер, М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран

tadqiqotlarida turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish, faoliyatni boshqarish jarayonlari rivojlanishining nazariy jihatlar hamda faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy hamda uslubiy jihatlar V.A.Kvartalnov, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, A.V.Borisova, V.N.Rudchenko, D.D.Vachugov, N.V.Kuznesova, A.A.Ignatev, Ye.B. Kvashnina, A.I.Tarasenok kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda olimlar tomonidan turistik majmualar tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish va uni samarali boshqarish jihatlar tadqiq etilgan hamda soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan³.

O'zbekiston hududlarda turizm sohasini, jumladan turizm sohalarini rivojlantirish mamlakatimizda M.Sharifxo'jaev, Q.X.Abdurahmonov, N.T.Tuxliev, M.Q.Pardaev, A.A.Eshtayev, O.H.Hamidov, I.S.Tuxliev, A.M.Abduvoxidov, M.T.Alieva, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, A.N.Norchaev, N.S.Ibragimov, I.A.Axmedov, U.Matyakubov, G.A.Alimova, X.F.Ochilova, S.Sh.Xalilov, A.T.Mirzaev, N.Q.Yo'ldoshev kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁴.

[Текст] / М. Портер; под ред. В.Д. Щетинина. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с.; Чесбро, Г. Открытые инновации. Создание прибыльных технологий [Текст] / Г. Чесбро. – М.: Поколение, 2007. – 336 с. – ISBN: 9785976300545.; Kiseleva I.A., Tranova A.M., Bayasgalan Tsetsgee. Analysis of the competitiveness of the tourist industry enterprises with the application of model of business excellence. – IFOCT-2013 (8 International Forum on Strategic Technology-2013), Mongolia, Ulan Bator, 2013, pp. 802.; Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. – 104 с.; Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999. – 288 с.; Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.; Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.

³Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; А.М. Ветитнев, Л.Б. Журавлева. Курортное дело: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 528 с.; А.В.Борисова. Курортное дело и оздоровительный туризм: учебное пособие. – Ярославль: ЯрГУ, 2009. – 114 с.; Кластеры в туризме: особенности классификации, процесс формирования и методы оценки // Общество. Среда. Развитие. – 2016, № 4. – С. 14.; Вачугов Д.Д. Основы менеджмента: учебное пособие. – М.: Высшая школа, 2005. – С. 59.; Кузнецова Н.В. История менеджмента. Изд-во Дальневосточного университета, 2004.; Игнатьев, А.А. Инновации туризма на севере России [Текст] / А.А. Игнатьев // Горизонты экономики. – 2015. – № 4 (23). – С. 30–36.; Квашнина Е.Б. Методика оценки влияния мультипликативного эффекта туристской деятельности на смежные отрасли региональной экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – СПб.: Санкт-Петербургский экономический университет им.Г.В.Плеханова. 2013. – С. 10–11.; Тарасенок А.И. Геоэкономика туризма. – М.: ИНФРА-М; Мн.: Нов. знание, 2011. – С. 169.

⁴Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001 й. –75-77-66.; Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – С.24.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. – Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; A.A.Eshtayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2019. – 246 b.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс...канд. экон. наук. - С.: СамИСИ, 2006. – С.155.; Boltabayev M.R, Tuxliyev I.C. Turizm: nazariya va amaliyot. –Т.: Fan va texnologiya, 2018, – 400 b.; Abduvoxidov A.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini tadqiq etish masalalari. //Xalqaro moliya va hisob 1(6). 2020, s. 1-10; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlar (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Samarqand: SamISI, 2019. –287 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. – 265 b.; Safarov B.SH. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. – 254 b.; Norchayev A.N.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turistik faoliyatni boshqarish jarayonlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq ular tomonidan sohani sinergetik rivojlantirish, soha faoliyatini hududlar kesimida rivojlantirish, hududlarda turistik majmualar faoliyati samaradorligini oshirish, turistik majmualarni shakllantirishda asosiy va yondosh infratuzilma tizimlarini rivojlantirish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Mamlakatimizning yuqori turistik salohiyatga ega hududlarida turistik majmualarni ustuvor tarmoq sifatida rivojlantirish va faoliyatning tarmoqni sinergetik rivojlantirishni tadqiq etish, soha korxonalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash asosida boshqaruv samaradorligini oshirish, hududlar kesimida turistik majmua xizmatlari va tarmoqni sinergetik rivojlantirishni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida turistik-rekreatsiya faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tizimlashtirish orqali rivojlantirish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda turistik majmualar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohalarining rivojlanishi va turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari;

turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida turizm sohasini boshqarish jarayonlariga yondashuvlar va ularning xususiyatlari;

xorijiy mamlakatlarda turizm sohalarini sinergetik boshqarish modellaridan foydalanish tajribasi;

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish holati va o'zgarish tendensiyalari tahlili;

Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Ispaniya misolida): Iqt.fan.nomz. diss. - T. 2004. - 136 b.; Ibragimov N.S. Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga ershishning ilmiy asoslari. DSc. dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2021y.; M.M.Irmatov, I.A.Axmedov. Turizm rivojlanishini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2004. - 132 b.; U.R.Matyakubov. "Orolbo'yi mintaqasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish". iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - U.: Urganch, 2022. - 268 b.; G.A.Alimova. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida harbiy rekreatsiyani faollashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2024. - 228-b.; X.F.Ochilova. Turizm sohasida ta'lim tizimini takomillashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2024. - 225-b.; S.SH.Xalilov. Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2024. - 212-b.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2021. - 254-b.; Yo'ldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment: o'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. - 392 b.

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini boshqarishga turizm sohasini sinergetik rivojlantirish ta'sirini baholash;

turizm sohalarini boshqarishda sinergiya samaradorligi usullarini baholash;

turizm sohasini sinergetik yondashuv asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida sohani boshqarish strategiyasini korreksiyalash istiqbollari;

O'zbekistonda turizm sohalarini rivojlantiruvchi resurslarni ko'p omilli tahlili asosida prognozlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va uni boshqarish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib hududlarda turistik majmualar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya-deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va taqqoslama tahlil, guruhlash, SWOT tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm sohalarini klasterli yondashuv asosida boshqarish tuzilmasi resurs oqimi manbalarining kengayishi, iste'mol qilinayotgan resurslar hajmining qisqarishi va resurslar harakatiga nisbatan neytral ustunliklar kabi omillarni 3 guruhga tasniflash orqali asoslangan;

Farg'ona viloyatida turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish bo'yicha samaradorlikni aniq normalangan qiymatlarda integral baholash uslubiyoti transport ($K1 = 0,85$), YalIM ulushi ($K2 = 0,60$), agrar klaster ($K3 = 0,55$), madaniy tadbirlar ($K4 = 0,75$) ko'rsatkichlari bo'yicha sinergetik samaradorlikni baholash asosida takomillashtirilgan;

hududlarda turizm sohalarini sinergetik samaradorlik ko'rsatkichlari natijalarini baholashda «sinergiya yo'q yoki salbiy» (0,01 – 0,39), «past sinergiya» (0,40 – 0,59), «o'rtacha sinergiya» (0,60 – 0,79) va «yuqori sinergiya» (0,80 – 1,00) interval oraliqda guruhlash taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasidagi turistik korxonalar soni, sohada band bo'lgan aholi soni, xizmat ko'rsatish sohalari faoliyat natijalari va kiritilayotgan investitsiyalar hajmiga ta'sirini ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

2014-2024-yillar oralig'i bo'yicha O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari, turistik-rekreatsiya tizimida mavjud resurs komponentlari soni va uning o'zgarishi, turistik firmalar va tashkilotlar soni, turistik maqsadlarda chet elga chiqqan O'zbekiston fuqarolari soni, tashrif buyurgan chet el fuqarolarining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi kabi statistik ma'lumotlar tahlil qilingan va baholangan;

ijtimoiy ta'sir, iqtisodiy faollik, infratuzilma rivojlanish, kooperatsiya darajasi va turizmning multipiv ta'siri indekslarini tasniflash asosida turizm tarmoqlarida sinergetik rivojlanish ta'sirini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasi baholovchi PEST tahlil amalga oshirilgan va ta'sir kuchining real ahamiyati baholangan;

turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida turizm sohasini boshqarishning innovatsion modeli mikro (raqobatbardosh) va makro (global) yo'nalishlarga ajratish asosida takomillashtirilgan;

turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari asoslangan;

klaster yondashuvi asosida turizm sohalarini sinergetik rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi milliy iqtisodiyotning klasterli rivojlanish konsepsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan nazariy va uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi hamda Milliy statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalga sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini shu bilan izohlash mumkinki, tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar turistik tarmog'i faoliyatni rivojlantirishi va mamlakatimizda turizm sohasining samarali yo'lga qo'yilishi, turizm xizmatlari bozorida soha korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan, shuningdek, mamlakatimiz turistik xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan faoliyatida, milliy iqtisodiyotning turizm faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sohalarida, hududlardagi turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tadbirkorliklarida sohani yanada takomillashtirishga doir tadbirlar ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalar ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislariga «Turizm menejmenti», «Turizm iqtisodiyoti va menejmenti», «Turizm infratuzilmasi», «Xalqaro turizm» kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turizm sohasini klasterli yondashuv asosida boshqarish tuzilmasi resurs oqimi manbalarining kengayishi, iste'mol qilinayotgan resurslar hajmining qisqarishi va resurslar harakatiga nisbatan neytral ustunliklar kabi omillarni 3 guruhga tasniflash bo'yicha ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-10-17-11398-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sohasini hududiy integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm asosida boshqarish samaradorligi sezilarli darajada oshirilib, boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma hamda tabiiy va ekologik tizimlarning segmentatsiyasi orqali hududlar kesimida resurslardan kompleks foydalanish imkoni kengaygan hamda turizm xizmatlari sifati va ko'lamining oshishi hisobiga sohaning iqtisodiy samaradorligi 10-12% ga ortgan;

Farg'ona viloyatida turizm sohasini sinergetik rivojlantirish bo'yicha samaradorlikni aniq normalangan qiymatlarda integral baholash uslubiyoti transport ($K1 = 0,85$), YaIM ulushi ($K2 = 0,60$), agrar klaster ($K3 = 0,55$), madaniy tadbirlar ($K4 = 0,75$) ko'rsatkichlari bo'yicha sinergetik samaradorlikni baholash asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-10-17-11398-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda turizm klasterlari faoliyatining sinergiya darajasi aniqlanib, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlash amalga oshirilishi orqali turizm klasterlari o'rtasida resurslardan kompleks foydalanish samaradorligi 11-13% ga oshgan;

hududlarda turizm sohasini sinergetik samaradorlik ko'rsatkichlari natijalarini baholashda «sinergiya yo'q yoki salbiy» (0,01 – 0,39), «past sinergiya» (0,40 – 0,59), «o'rtacha sinergiya» (0,60 – 0,79) va «yuqori sinergiya» (0,80 – 1,00) interval oraliqda guruhlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-10-17-11398-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sohasini klasterli yondashuv asosida boshqarish jarayoni samaradorligi oshirilib, resurs oqimi manbalari kengayishi va ulardan maqsadli foydalanish hisobiga xizmatlar taklifi 10-12% ga ko'paygan, iste'mol qilinayotgan resurslar hajmining qisqarishi asosida xarajatlarni 8-9% ga kamaytirish imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasidagi turistik korxonalar soni, sohada band bo'lgan aholi soni, xizmat ko'rsatish sohalari faoliyat natijalari va kiritilayotgan investitsiyalar hajmiga ta'sirini ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-

muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrda 03-10-17-11398-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistik firmalar va tashkilotlar soni, turizm sohasida band bo'lgan aholi ko'rsatkichlari hamda turizm bilan bog'liq xizmat ko'rsatish tarmoqlarining faoliyat natijalari investitsiyalar hajmi bilan birgalikda tizimli ravishda baholanib, turizm sohasiga jalb etilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish, xorijiy sayyohlar oqimi prognozi asosida infratuzilmani rejalashtirish hamda turizm xizmatlari eksportini 14-16% ga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari aks etgan 8 ta ish aprobatsiyadan o'tkazilgan. Jumladan, 2 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 6 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan. Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola nashr qilingan. Ulardan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish va boshqarishning nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida turizm sohalarining rivojlanishi va turizm sohalarini sinergetik rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari, turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish asosida turizm sohasini boshqarish jarayonlariga yondashuvlar va ularning xususiyatlari hamda xorijiy mamlakatlarda turizm sohalarini sinergetik boshqarish modellaridan foydalanish tajribasi yoritilgan.


Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi nafaqat xizmat ko'rsatish sektorida, balki makroiqtisodiy barqarorlik, ish o'rinlari yaratish, hududiy rivojlanish va madaniy almashinuvda muhim strategik tarmoq sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, turizmning ko'p sohali va tarmoqlararo tabiati uning rivojlanishida kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish bugungi kunda ilmiy va amaliy dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Sinergetik rivojlanish nazariyasi jamiyatdagi murakkab tizimlarning o‘zaro ta’sir va taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq etishga asoslangan bo‘lib, turizmni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy tizimlar bilan bog‘liq holda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuv doirasida turizm sohalarini rivojlantirishda tarmoqlararo integratsiya jarayonlarini baholash, kompleks indikatorlar va ko‘rsatkichlar asosida rivojlanish darajasini aniqlash, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik modellarini shakllantirish hamda hududiy va milliy darajada sinergiya samarasini hisobga olgan strategik rejalashtirish usullarini qo‘llash kabi ilmiy va uslubiy masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohalarini sinergetik asosda rivojlantirish uslubiyotlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va madaniy merosni saqlash kabi ko‘p qirrali maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. Shu bois, turizmni alohida sohalar jamlanmasi sifatida emas, balki bir-biri bilan bog‘liq, o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan tizimlar yig‘indisi sifatida o‘rganish va boshqarish bugungi kun ilmiy izlanishlarining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Turizm sohalarini sinergetik rivojlantirish faqat ichki imkoniyatlar asosida amalga oshirilmaydi, chunki ularning faoliyati global miqyosda o‘xshash va yondosh bo‘lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bilan bog‘liq. Shu sababli boshqaruvning asosiy maqsadi tarmoqni sineogetik rivojlanishini ta’minlash asosida raqobatbardosh milliy turistik mahsulotlar va xizmatlarni shakllantirish uchun sharoit yaratishdir.

Milliy iqtisodiyot darajasida turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirishni boshqarish uch bosqichda (makroiqtisodiy, mezoiktisodiy va mikroiktisodiy) amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohalarini boshqarish darajalari⁵

Turizm sohalarini boshqarishning makroiqtisodiy darajasida turizm tarmoqlarini boshqarish ijro etuvchi hokimiyat organlari (O‘zbekiston Respublikasi hukumati, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu darajada turizm sohasida davlat siyosatini shakllantirish va

⁵Юренский Денис Андреевич. Особенности управления региональным рынком туристских услуг. Московский экономический журнал №11 2019.

amalga oshirish asosiy me'yorlar, qonun-qoidalar, turizmni rivojlantirishning turli maqsadli dasturlari va strategiyalari ishlab chiqish va ularning ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi.

Boshqaruvning mezo-iqtisodiy darajasi - bu turizm sohalari faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish hisoblanib, u turistik mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan turizm sohasidagi hududiy davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek turizmning yangi turlarini yaratishni, turistik resurslarni muhofaza qilishni va boshqarishni o'z ichiga oladi.

Mikro-iqtisodiy darajadagi boshqaruv - turizm sohasidagi munitsipalitetlar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan ifodalanadi, ularning faoliyati avvalgi ikki darajaga to'g'ri kelishi kerak. Ushbu darajada tadbirkorlik tashabbusi turizm sohasida aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va iqtisodiy o'sishga yordam beradigan yangi turistik korxonalarni tashkil qilish orqali namoyon bo'ladi.

Turizm sohaslarini boshqarish daromadni ko'paytirishga intilayotgan har qanday tashkilot yoki tizimni boshqarish ta'moyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Iqtisodchi olim D. Magash ta'kidlashicha, «Turizm sohaslarini boshqarish - turistik tizimni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni hisoblanib, ommaviy taklif va maqsadga jamoat qiziqishi sifatida belgilanishi mumkin»⁶.

Turizm sohaslarini boshqarishning asosiy vazifalari tarmoq tizimidagi me'yoriy-huquqiy bazani, turli guruhlarining birgalikdagi va integratsiyalashgan faoliyatini ta'minlash, shuningdek, strategik raqobatbardoshlikni oshirish va alohida tashkilotning ham, umuman manzilning ham qiymatini oshirishdan iborat.

Jahon xo'jaligidagi kuchli darajadagi globallashuv jarayonining tezlashuvi ta'sirida xar bir mamlakat, xar bir hudud o'zining ichki imkoniyatlariga kuchli tayangan xolda yangi potentsiallarni izlab topib ishga tushirishdan iborat. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yangi turizm sohaslarini shakllantirish va samarali boshqarish orqali hududlarning yangi imkoniyatlari va zaxiralari ishga tushiriladi. Turizm sanoatida eng muhim istiqbolli yo'nalishlardan va hududiy loyihalardan biri turizm sohaslarini sinergetik rivojlantirishni tashkil etilishi va samarali boshqarilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda hududlarda turizm sohaslarini sinergetik rivojlantirish va boshqarish uchun klasterli yondashuv taklif etiladi. Klasterli yondashuv shaklidagi boshqaruv tuzilmalarining tashkil etilishidan nafaqat turistik majmua tarkibidagi korxonalar, balki turizm sohalari tarkibidagi infratuzilma tizimlari ham ma'lum darajada afzalliklarga ega bo'ladi (2-rasm).

Turizm sohaslarini klasterli yondashuv asosida boshqarishni tashkil etilishidan ko'riladigan ustunliklar keng qamrovli bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin⁷.


1-guruh. Resurs oqimi manbalarining kengayishi:

– bir-birini to'ldiruvchi resurslarga ega bo'lish;

⁶ Магас Д. Дестинацијски менаџмент – модели и технике: Факултет за менаџмент у туризму и угоститељству, 2008.

⁷ Итыгина А.А. Организационно-экономический механизм формирования интегрированных корпоративных образований в текстильной промышленности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: 2014. – С. 17.

- yirik bitimlarni qo‘lga kiritish;
- bozor ulushining kengayishi;
- ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuvi;
- axborot oqimidan foydalanish imkoniyatining kengayishi.



2-rasm. Turizm sohalarini klasterli boshqaruv tuzilmasi⁸

2-guruh. Iste'mol qilinayotgan resurslar hajmining qisqarishi:

- boshqaruv xarajatlari samaradorligining ortishi;
- qaytalanuvchi boshqaruv funksiyalarining bartaraf etilishi;

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- «ko‘lam» samarasiga erishish;
- kooperatsiya;
- kapital bozorida ustunlikka erishish;
- byudjetga ajratmalarning kamayishi.

3-guruh. Resurslar harakatiga nisbatan neytral ustunliklar:

- yirik korxonalar tomonidan «yutib yuborish»ning oldi olinishi;
- boshqaruvchilarning shaxsiy motivlari faollashuvi.

Yuqoridagi yondashuvda, turizm sohalarini klasterli boshqaruv tuzilmasini namunaviy va mamlakatimizga moslangan shaklini taklif qilib o‘tmoqchimiz. Hududlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi joylashgan o‘rni, tabiiy-iqlim sharoitlari, hududdagi ekologik holat, aholini turmush tarzi kabi ko‘plab omillar ularda yordamchi va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar, ekologik holat, ixtisoslashgan, dam olish va ko‘ngilochar xizmatlar, turizm sanoati vakillari, professional turizm uyushmalari, infratuzilma, transport kabi va boshqalar turlicha bo‘lishini ta‘minlaydi.

Dissertatsiyaning «**O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish holati va faoliyatni sinergetik rivojlantirish asosida boshqarishning hududiy resurs salohiyatini baholash**» deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini boshqarishga turizm sohasini sinergetik rivojlantirish ta‘sirini baholash hamda turizm sohalarini boshqarishda sinergiya samaradorligi usullarini baholash amalga oshirilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining izchil rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillardan biriga aylangan. Turizm nafaqat milliy iqtisodiyotning yuqori daromadli tarmog‘i, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, madaniy merosni asrash va dunyo miqyosida mamlakat imijini mustahkamlashda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan ochiq siyosat, xalqaro aloqalarning kengayishi, viza rejimining liberallashtirish, ichki va tashqi investitsiyalar hajmining ortib borishi turizm sohasining rivojlanishiga kuchli turtki bo‘ldi.

Turizm sohasining rivojlanish holatini baholash va o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish bu sohaning qaysi yo‘nalishlarda o‘sayotganini, qanday muammolar mavjudligini va ularni bartaraf etish uchun qanday chora-tadbirlar zarurligini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun turizm statistikasi, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, infratuzilma holati, mintaqaviy turizm salohiyati, xorijiy investitsiyalar, turistlar oqimi va turizm xizmatlaridan tushgan daromadlar kabi ko‘rsatkichlar asosida chuqur tahlil o‘tkazish muhimdir. Shuningdek, turizm sohasida qabul qilingan milliy strategiyalar, davlat dasturlari, qonun hujjatlari ham tahlil doirasida o‘rganilishi zarur.

2014-2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston turizm sohasi va unga bevosita bog‘liq xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamik tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida jadal rivojlangan, ayrim davrlarda esa global omillar ta‘sirida keskin pasayish va keyingi yillarda tezkor tiklanish bosqichlarini boshdan kechirgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						
		2014	2016	2018	2020	2022	2023	2024
1	Mamlakat ichidagi turizm iste'moli, mlrd. so'm	13576,2	13772,5	20561,3	5271,2	20101,2	25856,8	29515,5
2	Turizm sohasi tomonidan taklif etilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	6651,7	7809	8658,4	8540,4	12457,9	16462,4	18564,6
